O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884

ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol. 2 No. 3

2026

International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research

Volume 2 Issue 3
2026

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali

3-son
2026

Международный журнал современных научно-технических исследований

Том 2 Выпуск 3
2026

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas’ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay’ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O’zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O’zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro‘yxatidan o‘tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O‘zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© “O‘zMU Jizzax filiali” – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko‘chasi, 259-uy.

BOSHLANG'ICH SINF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

I.X. Turakulova
N.A. Xolmuratova

A. Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti, dekan, dotsent.
Sh. Rashidov tumani MMTB tasarrufidagi 1-sonli maktab, o'qituvchi.

Annotatsiya.

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf texnologiya darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari o'rganiladi. Raqamli vositalarning o'qitish samaradorligini oshirish, o'quvchilarning faolligini kuchaytirish va ta'lim natijalarini yaxshilashdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, maqolada raqamli vositalarni ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish bo'yicha amaliy takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, ta'lim, texnologiya darslari, o'qitish usullari, o'quvchi, o'qitish texnologiyalari.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

И.Х. Туракулова
Н.А. Холмуратова

Джизакский государственный педагогический университет имени А. Кадыри, декан, доцент.
общеобразовательная школа № 1 отдела дошкольного и школьного образования Шараф-Рашидовского района, учитель.

Аннотация.

В статье рассматриваются вопросы использования цифровых технологий на уроках технологии в начальных классах. Освещается значение цифровых средств в повышении эффективности обучения, активизации учебной деятельности учащихся и улучшении образовательных результатов. Кроме того, предлагаются практические рекомендации по эффективной интеграции цифровых средств в образовательный процесс.

Ключевые слова: цифровые технологии, образование, уроки технологии, методы обучения, учащийся, технологии обучения.

EFFECTIVENESS OF USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN TECHNOLOGY LESSONS IN PRIMARY SCHOOL

I.X. Turakulova
N.A. Xolmuratova

A. Qodiriy Jizzakh State Pedagogical University, Dean, Associate Professor.
Education of Sharof Rashidov District, Teacher.

Abstract.

This article examines the use of digital technologies in technology lessons in primary school. It highlights the role of digital tools in improving teaching effectiveness, increasing students' engagement, and enhancing learning outcomes. The article also provides practical recommendations for the effective integration of digital tools into the educational process.

Keywords: digital technologies, education, technology lessons, teaching methods, students, teaching technologies.

Kirish. Globallashuv jarayonida barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim tizimida, xususan, umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida "Texnologiya" fanini o'qitishda ham zamonaviy talablar asosida ta'lim sifatini yanada oshirish taqozo etilmoqda. Milliy o'quv dasturlari asosida o'qitish jarayonida raqamli texnologiyalardan samarali

foydalanish oʻquvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishda muhim rol oʻynaydi. Bu esa raqamli texnologiyalar asosida boshlangʻich sinflarda texnologiya fani darslarini tashkil etish va oʻtkazishga doir oʻquv materiallarini strukturalashtirish, texnologiya fani darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning tashkiliy-metodik modeli hamda uni amaliyotga joriy etishning didaktik ta'minotini takomillashtirishni taqozo etadi. Bu borada yurtimizda zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "Oʻzbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida"gi Farmonining 3-bobida "oʻquvchilar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishning umumiy darajasini oshirish maqsadida umumta'lim maktablarining asosiy oʻquv dasturlariga doimiy oʻzgartirishlar kiritish"ga doir topshiriqlar belgilab qoʻyilgan [1].

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar boshlangʻich sinf oʻquvchilarining bilim olish jarayonini yanada sifatli va samarali tashkil etishga, kognitiv faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Boshlangʻich ta'limda oʻtiladigan fanlarning integratsiyasi haqida dastlabki darslarda kichik misollar orqali oʻquvchilarga tushuncha berib borish lozim va bunda, albatta, raqamli texnologiyalardan foydalanish oʻrinli. Misol tariqasida birgina texnologiya fanini qaraydigan boʻlsak, dars jarayonlarida raqamli texnologiyalarning boshqa fanlar bilan bogʻlanishini koʻrishimiz mumkin. Boshlangʻich sinf texnologiya darslarida raqamli texnologiyalarni qoʻllash oʻquvchilarning zamonaviy bilim va koʻnikmalarni egallashiga yordam beradi. Raqamli vositalar ta'lim jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qiladi, bu esa oʻquvchilarning motivatsiyasini oshiradi. Shuningdek, texnologiyalar yordamida oʻqituvchi oʻquvchilarning natijalarini tezda baholab, individual yondashuvni amalga oshirish imkoniyatiga ega boʻladi. Bu, oʻz navbatida, ta'lim sifatini yaxshilashga olib keladi.

Raqamli texnologiyalarni boshlangʻich sinf texnologiya darslarida qoʻllash borasida fikr yuritilganda, ularning vazifasi, oʻtilayotgan mavzuga mosligi va oʻquvchilarda shakllantirilishi lozim boʻlgan kompetensiyalar bilan bogʻliqligini inobatga olish zarur [3–4].

Xususan, Pepplerning fikricha, raqamli texnologiyalarning tarkibiy qismi boʻlgan mediani boshlangʻich sinf oʻquvchisiga nisbatan oladigan boʻlsak, san'atni yaratish uchun muhim uchta keng tushunchaga olib keladi: a) oʻquv jarayonida faol ishtirok etishga; b) oʻquvchining kelajakdagi oʻzining ishi bilan bogʻliq ekanligini tasavvur qilishi, bu oʻrganishga ortiqcha qiziqishni uygʻotadi va avvalgi tajribalariga asoslanadi; c) keng jamoatchilik uchun muhim boʻlgan loyihalarni yaratish [3]. Bunday tushunchalar konstruktivizmning ijtimoiy-madaniy nazariyalari bilan bir qatorda badiiy va estetika nazariyalari bilan ham bogʻlanadi [2–5].

Yana bir tadqiqotda esa texnologiyalarni yosh xususiyatiga qarab tanlash boʻyicha xulosalar berilgan. Xususan, boshlangʻich sinflarda harakatli animatsiyalar boʻyicha umumiy bilimlar hosil qilinsa, yuqori sinflarda videomateriallar bilan ishlash boʻyicha malaka shakllantirish tavsiya qilinadi.

Boshlangʻich sinf texnologiya darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning samarali tomonlarini quyidagicha keltirishimiz mumkin.

1. **Tezkor va aniq fikrlar olish:** Oʻquvchilar smart doskalar orqali interaktiv mashqlarni bajarib, tezkor tarzda natijalar olishlari mumkin. Bu oʻqituvchiga oʻquvchilarning bilim darajasini tezkor baholash va ularning qaysi mavzularni yaxshiroq oʻrganganini aniqlashda yordam beradi.
2. **Hamkorlikda guruh bilan ishlash:** Raqamli platformalar oʻquvchilarga guruh boʻlib ishlash imkonini beradi. Masalan, oʻquvchilar birgalikda matematik masalalar va boshqa fanlardagi mashqlarni bajarishlari va muammolarni birgalikda yechishlari mumkin. Bu, oʻz navbatida, jamoa bilan ishlash va kommunikatsiya koʻnikmalarini rivojlantiradi.
3. **Kreativlik va interaktiv fikrlashni oshirish:** Raqamli texnologiyalar (kompyuterlar, planshetlar, interaktiv taxtalar) boshlangʻich sinf oʻquvchilariga dars mashgʻulotlaridagi mashqlarni bajarishda interaktiv usullarni taqdim etadi. Masalan, matematik simulyatsiyalar yoki oʻyinlar orqali oʻquvchilar mavzuni oʻrganishning qiziqarli usullarini topadilar. Bu esa ularning oʻqish jarayoniga koʻproq jalb boʻlishiga yordam beradi.
4. **Innovatsion fikrlash:** Raqamli texnologiyalar yordamida oʻqituvchilar doimiy ravishda yangi materiallar, metodikalar va mashqlarni taqdim etishlari mumkin. Bu esa dars mashgʻulotlarini zamonaviy va dolzarb qiladi, oʻquvchilarga eng soʻnggi zamonaviy bilimlarni olish imkoniyatini beradi.
5. **Maqsadli oʻrganish jarayonini nazorat qilish:** Oʻqituvchilar raqamli platformalar orqali oʻquvchilarning yutuqlarini kuzatib borishlari, ular qanday mavzularni yaxshi tushunganligini va qaysi sohalarda yordam kerakligini aniq bilishlari mumkin. Bu dars jarayonini samarali boshqarishga yordam beradi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida individual yondashuv orqali darsni individual oʻqish sur'atiga moslashtirish mumkin. Oʻqituvchining raqamli koʻnikmalarini oshirish hamda texnik infratuzilma yaratish zarurati ortadi. Raqamli texnologiyalarni texnologiya darslariga joriy qilish oʻquvchilarga quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

Interaktivlik: Oʻquvchilar dars mashgʻulotlarini oʻz fikrlash qobiliyati asosida tushunish imkoniga ega boʻladilar. Bu oʻquvchilarga texnologiya darslaridagi masalalarni turli shakllarda hal qilishni oʻrgatadi va oʻzlashtirishni osonlashtiradi.

Individual yondashuv: Har bir oʻquvchining ehtiyojlariga mos individual darslarni tashkil etish mumkin. Bu metod boshlangʻich ta'limda juda muhimdir, chunki har bir oʻquvchi oʻz sur'atida oʻqishi kerak.

Vaqt va resurslarni tejash: Onlayn resurslar orqali oʻquvchilar va oʻqituvchilar darslarni istalgan joyda va vaqtda olib borishlari mumkin. Bu metod ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi va vaqtdan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Muayyan sharoitdan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, raqamli texnologiyalarni boshlang‘ich ta’lim tizimida texnologiya darslarida qo‘llash jarayonida ba’zi bir muammolar yuzaga kelishi mumkin, masalan:

1. Texnik vositalarning ta’minoti: Ba’zi hududlarda internet tezligining pastligi yoki zarur texnik vositalarning yo‘qligi o‘quvchilarga ta’lim olishda qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.

2. O‘qituvchining raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalari: Raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash uchun o‘qituvchilar o‘z raqamli ko‘nikmalarini muntazam ravishda yangilab borishlari zarur. Bu esa o‘qituvchilarning o‘z malakalarini oshirishga bo‘lgan ehtiyojni oshiradi.

3. O‘quvchilarni raqamli texnologik vositalarga muvofiqlashtirish: Ba’zi o‘quvchilarda raqamli texnologiyalarni ishlatish uchun zarur ko‘nikmalar bo‘lmasligi mumkin, bu esa o‘qish jarayonini sekinlashtirishi va samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Tavsiya. Muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ta’lim muassasalari: a) raqamli pedagogikaga yo‘naltirilgan o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlariga mablag‘ sarflash dars mashg‘uloti vazifasini qoniqarli bajarishga yordam beradi; b) raqamli texnologiyalardan foydalanib, an’anaviy o‘qitish metodikasini takomillashtirish dars samaradorligini oshiradi; c) raqamli bo‘linishni bartaraf etish uchun barcha o‘quvchilarga texnologiyalardan teng foydalanish imkonini ta’minlash zarur.

Ushbu omillarni hal qilish orqali maktablar raqamli texnologiyalarning potensial afzalliklarini maksimal darajada oshirishi va o‘quvchilarni raqamli kelajakka tayyorlaydigan o‘quv muhitini yaratishi mumkin.

Shunday ekan, yuqorida biz sanab o‘tgan muammolar yuzaga kelishining oldini olish uchun, albatta, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z ustida tinmay ishlashi, bugungi zamon bilan hamnafas bo‘lishi zarur.

Umuman, xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar texnologiya darslarida an’anaviy o‘qitish uslubiyati ustiga qurilgan bo‘lib, interaktiv, samarali va o‘quvchilarga yo‘naltirilgan o‘quv tajribalarini taklif etadi va shu bilan birga, raqamli texnologiyalar o‘quvchilarning kundalik hayotida uchraydigan texnologik jihozlardan foydalanishga yaqindan yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. Axmedova S. Boshlang‘ich ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar asosida matematika darsini tashkil etish // *International Journal of Science and Technology.* – 2025. – № 2.
3. Karomatillo J. Texnologiya darslarida raqamli texnologiyalarni qo‘llash // *New Renaissance.* – 2023. – № 9.
4. Xusayinova G. Abdurasulovna. Raqamli ta’limdan texnologiya darslarida foydalanish samaradorligi // *Ijodkor o‘qituvchi.* – 2023. – Vol. 3, № 30. – B. 88–94.
5. Chen C. M., Huang S. H. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qishiga raqamli o‘yinlarni kiritishning motivatsiya va muvaffaqiyatga ta’siri // *Ta’lim texnologiyasini tadqiq qilish va rivojlantirish.* – 2012. – Vol. 60, № 1. – B. 143–160.